

## ZAMONAVIY TA'LIM VA TILSHUNOSLIKDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA VA SUN'IY INTELLEKTLARNING AHAMIYATI

**Shuxratbekova Zaxrooyim**

*O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti talabasi*

***Annotatsiya.** Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, ayniqsa xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning bugungi ta'lim tizimidagi o'rni, hamda sun'iy intellekt (SI), ayniqsa kompyuter va smartfonlarga tayangan holda uning imkoniyatlaridan keng foydalanish va ularni amaliyotda tadbiq qilish ta'kidlangan va hayotiy misollar namunasida tanqidiy tahlil qilingan. Bundan tashqari, xorijiy tilni o'rganishda talaba va maktab o'quvchilariga qanday qilib SI vositalari va texnologiyalardan unumli foydalanishga doir zaruriy tavsiya va maslahatlar ta'kidlangan.*

***Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, raqamli texnologiya, keng imkoniyat, tadqiqot, tajriba, Chat GPT, materiallar, ta'lim ko'nikmalari.*

Bugungi kunda barchamizning kundalik hayotimizni ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan raqamli texnologiya va sun'iy intellekt tushunchalari dunyoning o'qitish va o'qish sistemasini tubdan yangilanishida asosiy sabab bo'ldi. Bugungi ta'lim tizimida o'qituvchining o'qituvchining dars jarayonidagi samarali aralashuvda foydalanilayotgan ta'lim texnologiya va resurslari muhim ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar dars jarayonini qiziqarli, interaktiv, hamda zamonaviy ta'lim standartlariga to'liq javob bera oladigan bo'lishida ta'sir ko'rsatibgina qolmay, darsni kognitiv hamda tez va sezilarli darajada oson bo'lishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, barcha yoshlarning «yordamchisi»ga aylanib ulgurgan sun'iy intellekt (SI) Tilshunoslik va ta'lim bsigasida inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Uning ta'lim va tilshunoslikdagi ayrim kamchilik va afzalliklari ham yo'q emas. Yuqoridagi masalar to'g'risida ushbu maqola davomida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Texnologiya jadallik bilan rivojlanib kelayotgan ushbu davrda talaba va yoshlarning diqqat-e'tibori va qiziqishini, motivatsiyasini faqatgina sinf xonalardagi an'anaviy darslar bilan erishish mushkul ekanligi barchamizga ma'lum. O'quvchilarning darsdagi davolatish va faol qatnashishi, ularning xorijiy tilni o'rganishga qiziqayotganliklari etarli emas. Texnologiya davrida xorijiy til ixlosmandlari, ayniqsa yoshlarni til o'rganish jarayonida turli xil plarformalardan masalan: Duolingo, Chat GPT, Google DC kabi SI platformalarida murojaat qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarni dars jarayonlarini interaktiv hamda kognitiv tashkillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Shu kabi raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilar istalgan joydan turib o'zlariga kerakli

bilim olishlari va ko'nikmalarini rivojlantirishdagi mumkin bu ham raqqamli texnologiyar yordamida til o'rganish yo'li yanada samarali va tez ekanligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6079-sonli Farmoni va 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal Joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora tadbirlari to'g'risida"gi 4996-son qarori ushbu sohadagi ishlarni bir tizimga solish va tashkillashtirish imkonini berdi. Jumladan, "Sun'iy intellektga tayyorlik indeksida O'zbekiston Respublikasi o'rnini yaxshilash bo'yicha choratadbirlar dasturi" tasdiqlandi. Unda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida SI texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish, qishloq xo'jaligi, energetika, sog'liqni saqlash, elektron hukumat sohalariga mazkur texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan.

**SI -raqamli texnologiyalar va ularning ta'limdagi ahamiyati.** SI raqqamli texnologiyalar zamonaviy ta'lim hamda ta'lim tizimini jahon standartlariga muvofiq tashkil qilish hamda takomillashtirishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Bunda o'quvchilar yuqorida keltirilgan Chat GPT onlayn bor chat kabi vositalar yordamida istalgan joyda istalgan tilini o'rganishi hatto sun'iy intellekt yordamida erkin suhbatlashadi olishlari mumkin. SI vositalarining an'anaviy ta'lim tizimidan afzalliklari shundaki, endilikda o'quvchilar vaqtlarini ketkazib xususiy repetitorlarga yoki shaxsiy o'qituvchi yollab emas, balki elektron o'quv resurslari yordamida istalgan darslik hamda o'quv qo'llanmalarini topishlari mumkin. Interaktiv darsliklar, videokurslar yordamida qulay va sifatli bilim olishlari mumkin. Bunga misol tariqasida Ibrat academy (Ibrat farzandlari) nomli onlayn ta'lim platformalarni keltirish mumkin. Shu kabi platforma yordamida o'quvchi o'yinlashtirilgan topshiriqlar yordamida til o'rganishni yanada xavfli qila oladi. Bundan tashqari barchaga ma'lum DTM imtihonlarida ham shaffoflik va adolatni ta'minlash va baholashda inson omillarini aralashtirmaslik maqsadida raqqamli texnologiyalarga tayanildi. Bunda avtomatlashtirilgan testlar yordamida bilimni tez va sifatli baholash tizimi keng foydalaniladi. SI yordamida til o'rganuvchi hamda o'qituvchilar o'z bilimlarini oshirishlari hamda: IELTS, TOEFL, SAT, TOPIC, CELTA, DUOLINGO, MULTILEVEL kabi xalqaro hamda mahalliy sertifikatlarni qo'lga kiritish hamda jahon talabiga mos tarzda o'rganishlari mumkin. Buning isbotidir sifatida yurtimizda IELTS 9 sertifikat sohiblari kundan kuniga ko'payayotganini keltirishimiz mumkin.

**SI-raqamli texnologitarlar va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati.** Sun'iy intellekt (SI) tilshunoslik sohasida inqilobiy o'zgarishni yuzaga keltirdi. U matnlarni

qayta ishlash, talaffuz sifatini oshirish, nutq ko'nikmalarini rivojlantirish kabi ko'p sohalarni ma'lum bir bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Misol uchun Google Translate, Grammarly, Chat GPT, kabi texnologiyalar yordamida tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan matnni qayta ishlash, tarjima nazariyasi kabi sohalarni chuqur o'rganish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Absalamova G. S. Xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences: Volume 4.
2. Alraimi K. M., Zo H., Ciganek A. P. Understanding the MOOCs Continuance: The role of openness and reputation // Computers & Education. - 2015. - Volume 80. - P. 28-38.
3. Jumayeva, M., Quvvatova, G., & Dovurova, G. (2023). Innovative Methods and Tools in Higher Education. Science and innovation, 2(B11), 713-720.